**UO‘K 82**

## HOZIRGI O‘ZBEK HIKOYALARIDA QO‘LLANILGAN FRAZEOLOGIZMLARNING USLUBIY VAZIFALARI

***Fozilova Gulshoda Botirovna,***
*Buxoro xalqaro universiteti magistranti*
*fozilovagulshoda2@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti hikoyalaridagi frazeologik birliklarning uslubiy-badiiy vazifalari Erkin A’zamning “Piyoda” hikoyasi asosida tahlil qilindi. Maqolada frazeologizmlarning badiiy matnda obraz yaratish, milliy-etnografik kolorit berish, ekspressiv-emotsional ta’sirchanlikni kuchaytirish va personajlar nutqini individuallashtirish kabi funksiyalarini yoritildi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, frazeologizmlar o‘zbek adabiyoti hikoyalarida nafaqat tilni bezovchi, balki asarning g‘oyaviy-badiiy tizimini shakllantiruvchi faol vositadir.*

***Kalit so‘zlar:*** *frazeologizm, uslubiy vazifa, badiiy matn, milliy kolorit, obraz, ekspressivlik, nutq individuallashuvi, hikoyachilik, maqol va matal, badiiy uslub.*

## СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РАССКАЗАХ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются стилистико-художественные функции фразеологических единиц в современной узбекской прозе на материале рассказа Эркина Аъзама «Пиёда». Цель статьи заключается в раскрытии функций фразеологизмов в художественном тексте — создании образа, формировании национально-этнографического колорита, усилении экспрессивно-эмоциональной выразительности и индивидуализации речи персонажей. В исследовании использованы описательный, сравнительно-типологический и контекстуальный методы анализа. Результаты анализа показывают, что фразеологизмы в современной узбекской прозе являются не просто украшением языка, а активным средством формирования идейно-художественной системы произведения.*

***Ключевые слова:*** *фразеологизм, стилистическая функция, художественный текст, национальный колорит, образ, экспрессивность, индивидуализация речи, повествование, пословицы и поговорки, художественный стиль.*

## STYLISTIC TASKS OF PHRASEOLOGISMS USED IN STORIES OF MODERN UZBEK LITERATURE

***Abstract.*** *This article analyses the stylistic and artistic functions of phraseological units in contemporary Uzbek prose, based on Erkin A’zam’s short story “Piyoda” (“On Foot”). The aim of the article is to reveal the functions of phraseologisms in literary text, namely character creation, national-ethnographic colouring, enhancement of expressive-emotional impact, and individualization of characters’ speech. Descriptive, comparative-typological and contextual methods of analysis were applied. The results show that phraseological units in modern Uzbek prose are not merely a linguistic ornament but an active means of shaping the ideological and artistic system of the work.*

***Key words:*** *phraseology, stylistic function, literary text, national colour, character, expressiveness, individualization of speech, storytelling, proverbs and sayings, literary style.*

**Kirish**. Har qanday xalq tili, xususan, uning frazeologik qatlami, o‘sha xalqning ming yillik tarixi, dunyoqarashi va ma’naviy-axloqiy tajribasini o‘zida mujassam etadi. Frazeologik birliklar tilning eng barqaror, shu bilan birga eng obrazli qismini tashkil qiladi, ular orqali xalq tafakkurining o‘ziga xos qirralari, milliy his-tuyg‘u va qadriyatlari ifodalanadi. O‘zbek tilshunosligida frazeologiyaning nazariy asoslarini yaratishda Shavkat Rahmatullayevning xizmati beqiyos bo‘lib, uning “Frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlari” [6], “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” [7] va “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” [9] kabi asarlari sohaning ilmiy poydevorini tashkil etadi.

Badiiy adabiyot frazeologik boylikning eng faol namoyon bo‘lish maydoni. Zero, yozuvchi xalq tilining barcha qatlamlaridan, jumladan, frazeologik fondidan unumli foydalanib, o‘z qahramonlarining xarakterini, ichki dunyosini, ijtimoiy-psixologik holatini chuqur va ta’sirchan tarzda ochib berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. B. Yo‘ldoshevning ta’kidlashicha, frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari aynan badiiy nutq sharoitida to‘laqonli namoyon bo‘ladi [15].

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Frazeologiyaning badiiy matndagi o‘rni masalasi o‘zbek tilshunosligida uzoq tarixga ega. Ya. Pinxasov o‘zining “Hozirgi o‘zbek adabiy tili (leksikologiya va frazeologiya)” asarida frazeologik birliklarning leksik-semantik tabiatini yoritgan bo‘lsa, I. Qo‘chqortoyev frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyatlarini chuqur tadqiq etgan. A.Mamatov esa hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi frazeologik norma muammolarini o‘rgangan [5:15]. Shu bilan birga, aynan bitta badiiy asar, xususan, kichik janr namunasi bo‘lgan hikoya misolida frazeologizmlarning barcha uslubiy funksiyalarini yaxlit tizimda ko‘rsatib beruvchi tadqiqotlar hamon yetarli emas, bu esa mazkur maqolaning ilmiy zaruratini belgilaydi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi hozirgi zamon o‘zbek hikoyachiligi namunasi sifatida Erkin A’zamning “Piyoda” hikoyasi [3:101] asosida frazeologizmlarning uslubiy vazifalarini aniqlash va tizimlashtirishdan iborat. Tadqiqot predmeti sifatida hikoya matnida qo‘llangan turg‘un birikmalar tilshunoslik terminologiyasida “ibora” yoki “frazeologik birlik” deb ataluvchi, tarkibi barqaror va ma’nosi ko‘chma birikmalar, ularning semantik-uslubiy xususiyatlari va matn ichidagi vazifalari belgilangan. Soha dolzarbligi shundaki, o‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida frazeologizmlarning nazariy tavsifi yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, ularning aniq bir badiiy asar misolida kompleks ham lingvistik, ham adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlili hamon dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1) hikoya matnidan frazeologik birliklarni ajratib olish va tasniflash;

2) ularning uslubiy-semantik guruhlarini aniqlash;

3) har bir guruhning matn ichidagi badiiy-estetik vazifasini yoritish;

4) frazeologizmlarning personajlar nutqini individuallashtirish va asarning g‘oyaviy ziddiyatini ifodalashdagi o‘rnini belgilash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda frazeologizmlar birinchi marta Erkin A’zamning “Piyoda” hikoyasi misolida kompleks tarzda, ya’ni semantik-uslubiy tasnif bilan bir qatorda kompozitsion-badiiy tahlil asosida ham o‘rganilmoqda. Tahlil natijalari zamonaviy o‘zbek badiiy nasri tilini o‘rganish, xususan, stilistika sohasini rivojlantirishga muayyan hissa qo‘shadi va frazeologik lug‘atlarni yangi badiiy misollar bilan boyitishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tavsifiy metod (frazeologik birliklarni matndan ajratib olish va ularning ma’nosini izohlash), kontekstual tahlil metodi (frazeologizmning aniq nutqiy vaziyatdagi vazifasini aniqlash), badiiy matn tahlilining umumiy tamoyillariga asoslangan qiyosiy-tipologik metod [12:23] (turli personajlar nutqidagi frazeologik qatlamni qiyoslash), lingvokulturologik yondashuv [2:28] hamda qisman statistik metod (frazeologik birliklarning miqdoriy taqsimotini aniqlash) qo‘llanildi. Bunday kompleks yondashuv frazeologizmlarning nafaqat lug‘aviy ma’nosini, balki ularning badiiy matndagi funksional salmog‘ini ham to‘liq ochib berish imkonini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi**.Tadqiqotda tahlil uchun Erkin A’zamning “Piyoda”[3:101-117] hikoyasi tanlandi. Bu tanlovning sababi shundaki, hikoyada qishloq turmush tarzi, ota-bola va aka-uka munosabatlari, an’ana bilan zamonaviylik o‘rtasidagi ziddiyat markaziy o‘rin tutadi, bu esa tabiiy ravishda jonli xalq tilining, jumladan boy frazeologik qatlamning faol ishtirokini taqozo etadi. Matnni tahlil qilish jarayonida 40 dan ortiq frazeologik birliklar aniqlandi. Ularning semantik-uslubiy xususiyatlariga ko‘ra quyidagi beshta asosiy funksional guruhga ajratish mumkin bo‘ldi.

**Frazeologizmlarning grammatik-struktur xususiyatlari**

Frazeologik birliklarni funksional jihatdan tasniflashdan avval ularning grammatik-struktur tabiatiga ham qisqacha to‘xtalish lozim, chunki Sh. Rahmatullayev ta’kidlaganidek, “Frazeologizmning grammatik shakli uning uslubiy salmog‘iga bevosita ta’sir ko‘rsatadi” [7:12]. Hikoya matnida fe’l xarakteridagi frazeologizmlar son jihatdan ustunlik qiladi: “jon-poni chiqmoq”, “alami jo‘shmoq”, “umidini uzmoq”, “ko‘z uzmay qaramoq”, “etak silkimoq”, “quloq qoqmay o‘tirmoq” kabilar harakat va holatni obrazli ifodalaydi. Ot xarakteridagi frazeologizmlar nisbatan kamroq uchraydi va ko‘pincha xarakterlovchi vazifani bajaradi: “o‘tgan asrdan qolgan odam”, “yalmog‘iz kampir”, “bo‘yni yo‘g‘on”. Alohida qatlamni gap qurilishiga teng frazeologik birliklarni esa maqol va matallar tashkil etadi: “devor ag‘nasa, ichkari ag‘nasin”, “ko‘za kunda emas, kunida sinadi”, “begona sangi devona”. Bunday maqollar frazeologik tizimning eng barqaror va semantik jihatdan eng yaxlit qatlamini tashkil etadi, chunki ularda xalq tafakkurining

umumlashma xulosasi mujassam bo‘ladi. Grammatik-struktur tahlil shuni ko‘rsatadiki, muallif fe’l frazeologizmlaridan asosan dinamik, ziddiyatli lavhalarni tasvirlashda, ot frazeologizmlardan esa xarakterlash va falsafiy umumlashtirish vaziyatlarida foydalanadi.

**1. Obraz-xarakter yaratish vazifasi**

Frazeologizmlarning eng muhim uslubiy vazifalaridan biri personajning ichki dunyosini, uning voqelikka, o‘zgarishlarga munosabatini bir necha so‘z bilan chuqur ochib berishdir. Hikoyaning bosh qahramoni Berdiboyning konservativ, o‘zgarishlarga qarshi tabiati aynan frazeologik ifodalar orqali yorqin ko‘rinadi: u singlisi haqida gapirganda “tilginasini sug‘urib olgisi keldi”, onasi bilan gaplashganda “jon-poni chiqardi” kabi iboralarni ishlatadi. Muallif Gulsanam tiliga “o‘tgan asrdan qolgan odamsiz” degan frazeologik xarakterli ifodani qo‘yish orqali ikki avlod o‘rtasidagi tafakkur tafovutini bir zarbda ifodalaydi. Bunday misollar shuni ko‘rsatadiki, frazeologizm bu shunchaki bezak emas, balki qisqa matnda maksimal xarakterologik yukni tashiy oladigan vositadir.

Shu bilan bir qatorda, Berdiboyning o‘tmishga munosabatini ifodalovchi “kuyovlik chog‘lari”, “qalliq o‘yinga oshiqardi” kabi frazeologik xarakterdagi birikmalar hamda uning hozirgi holatini tavsiflovchi “hangu mang bo‘lib qoldi”, “ko‘ziga xunuk, dardisar ko‘rinib ketdi” kabi iboralar qahramon obrazining ichki dinamikasini o‘tmish xotirasidan hozirgi kunning tushkunligiga o‘tishini bosqichma-bosqich ochib beradi. Alohida ta’kidlash joizki, muallif Parda Qurbon obrazini yaratishda ham frazeologik vositadan foydalanadi, biroq bu o‘rinda teskari uslubiy nazariyani qo‘llaydi: otaning “muk tushgancha”, “ko‘z uzmay” kitob o‘qishi, “oxiratning tashvishu hisob-kitobi bilan mashg‘ul” bo‘lishi kabi ifodalar orqali uning dunyoviy ishlardan chekingan, sokin va passiv xarakteri chizib beriladi. Bunday qarama-qarshi qo‘llanish bir tomondan Berdiboyning notinch, portlovchi frazeologik nutqi, ikkinchi tomondan otaning sokin, deyarli frazeologik birliklarsiz nutqi ikki avlod, ikki turmush falsafasi o‘rtasidagi ziddiyatni mustahkamlaydi.

**2. Milliy-etnografik kolorit yaratish vazifasi**

Hikoyada qishloq turmushiga xos an’anaviy salomlashish, duo qilish, ta’na-dashnom shakllari frazeologik birliklar orqali beriladi: “tan-joning sog‘mi”, “oyro‘zingdi vaqti xush”, “tiniq kampir qalay” kabi murojaatlar xalq og‘zaki nutqida shakllangan turg‘un salomlashish formulalari bo‘lib, ular o‘quvchiga qishloq muhitining o‘ziga xos ruhini, insonlar orasidagi an’anaviy hurmat-ehtirom munosabatini his qildiradi.

Milliy koloritni yaratishda muhim o‘rin tutgan yana bir qatlam — qarindoshlik va oilaviy munosabatlarga oid frazeologizmlardir: “bir qorindan chiqqan”, “kindikkinangdi kesgan kampir”, “yotning mehri qochadi”, “yetti pushtingga yetadigan isnod”. Bu iboralar o‘zbek xalqining qarindosh-urug‘chilik tizimiga, nasl-nasabga, oila sha’niga bo‘lgan an’anaviy munosabatini aks ettiradi va ularni boshqa xalqlar tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi. Bu frazeologizmlarning milliy-madaniy o‘ziga xosligining asosiy belgisi hisoblanadi. Shuningdek, dehqonchilik va chorvachilik turmush tarziga oid obrazli ifodalar (“ko‘za kunda emas, kunida sinadi”, “uzangi shaylab turibdi”) orqali qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq milliy tasavvurlar badiiy nutqqa singdiriladi. Bunday frazeologizmlar nafaqat mazmun, balki shakl jihatidan ham arxaik leksik komponentlar, dialektal unsurlar (masalan, “apa”, “boboy”, “ebi” kabi murojaat shakllari) orqali ham matnga o‘ziga xos mahalliy-etnografik ranglar beradi.

Alohida ta’kidlash lozimki, hikoyada diniy-mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq frazeologik va frazeologiyaga yaqin birliklar ham muhim o‘rin egallaydi: “ajina”, “imoniga foyda”, “oxiratning tashvishu hisob-kitobi”, “Xudo uribdi” kabi ifodalar xalq dunyoqarashidagi diniy-mifologik qatlamni aks ettiradi. Ayniqsa, hikoyaning kulminatsion qismida qahramonning tungi dashtda “ajinalar” davrasiga duch kelishi tasviri xalq og‘zaki ijodidagi ajina haqidagi mifologik tasavvurlarga asoslangan bo‘lib, bu o‘rinda frazeologik birliklar bilan mifopoetik obrazlar uyg‘unlashib, matnga qo‘shimcha ramziy-falsafiy chuqurlik bag‘ishlaydi. Bunday uyg‘unlashuv zamonaviy o‘zbek nasrida an’anaviy xalq tasavvurlari bilan psixologik-realistik tasvir uslubining o‘zaro ta’sirini ko‘rsatuvchi muhim badiiy hodisa sifatida alohida tadqiqotga loyiqdir.

**3. Ekspressiv-emotsional bo‘yoq berish vazifasi**

Frazeologizmlarning eng ko‘zga tashlanadigan xususiyati his-tuyg‘uni kuchaytirish qobiliyatidir [8:12]. Oddiy “juda xafa bo‘ldi” yoki “juda qattiq afsuslandi” kabi neytral ifodalar o‘rniga muallif “vujudi zirqirab ketdi”, “bo‘kirgudek nola qilib yubordi”, “alami jo‘shdi”, “battar aynidi”, “umidini uzib” kabi frazeologik birliklarni qo‘llaydi. Bu iboralar his-tuyg‘uning jismoniy, deyarli fiziologik darajada his qilinishini ta’minlaydi. O‘quvchi qahramonning ichki azobini nafaqat tushunadi, balki go‘yo his etadi. Shuningdek, kesatiq va piching ma’nosini kuchaytiruvchi frazeologizmlar (“suyunchi beraymi shunga?!”, “Xudo uribdi!”, “labingizga kesak surtib kirib kelasiz”) orqali oilaviy nizoning kundalik, jonli, achchiq-kulgili ohangi yaratiladi.

Hikoyaning kulminatsion tushga o‘xshash qismida ya’ni Berdiboyning kechqurungi sarson-sargardonligi tasvirlangan bo‘limda, frazeologizmlarning ekspressiv zichligi keskin ortadi: “tizzalarining ko‘zi qaltiray boshladi”, “hangu mang bo‘lib qoldi”, “qo‘rquv bosdi” kabi bir necha iboraning qisqa matn parchasida to‘planishi qahramonning ruhiy tanglikka tushib qolganini, voqelik bilan tush-xayol chegarasi yo‘qolayotganini kuchli ta’sirchanlik bilan yetkazadi. Bu frazeologik zichlikning (bir matn bo‘lagida bir necha frazeologizmning yonma-yon kelishi) alohida uslubiy jihat sifatida qo‘llanganini ko‘rsatadi: muallif voqealar keskinlashgan sari frazeologik birliklar sonini ham ko‘paytirib boradi, bu esa ritmik-intonatsion kuchayishga xizmat qiladi.

**4. Personajlar nutqini individuallashtirish vazifasi**

Har bir qahramonning nutqi o‘ziga xos frazeologik doiraga ega bo‘lib, bu yozuvchining ataylab tanlagan uslubiy vositasidir. Ona nutqida asosan xalq maqollari va duo xarakteridagi iboralar ustunlik qiladi (“devor ag‘nasa, ichkari ag‘nasin”, “kindikkinangdi kesgan kampir”), otaning nutqi esa deyarli frazeologik jihatdan “kambag‘al” u ko‘pincha faqat “ihm, ihm. Cho‘rt, cho‘rt” degan formulaviy birikma bilan cheklanadi. Bu otaning voqelikdan uzilib qolganligini, ichki sukutini nutqiy darajada aks ettiruvchi ataylab qilingan badiiy tanlov. Berdiboyning nutqi esa achchiq kesatiqlarga, la’nat va qarg‘ish xarakteridagi frazeologizmlarga to‘la (“izi o‘chsin, nomi o‘chsin”, “yelkamning chuquri ko‘rsin uyingizni”), bu esa uning ichki tanglik va nizolarga to‘la ruhiy holatini ochib beradi.

Gulsanam obrazining nutqiy portreti alohida e’tiborga loyiq: uning tilida an’anaviy frazeologik birliklar deyarli uchramaydi, aksincha, u zamonaviy so‘zlashuv uslubiga xos erkin, hatto ataylab kesatiqli iboralarni qo‘llaydi (“sizga sallalik, chechamga paranjilik opkelmoqchiman”). Bu muallifning ongli badiiy qarori bo‘lib, yosh avlod vakilining nutqiy xatti-harakati orqali uning an’anaviy qadriyatlardan uzoqlashganini frazeologik darajada ham ko‘rsatib beradi. Shunday qilib, hikoyada kuzatiladigan frazeologik gradatsiya otaning deyarli frazeologiyasiz nutqidan, onaning maqolga boy nutqi orqali, Berdiboyning kesatiqli-la’natli nutqiga va nihoyat Gulsanamning frazeologik jihatdan “yalang‘och”, zamonaviy nutqiga o‘tish bir oila doirasida avlodlar almashinuvining tilshunoslik nuqtai nazaridan ham kuzatilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

**5. Ijtimoiy-psixologik ziddiyatni ifodalash vazifasi**

Hikoyaning markaziy g‘oyasi eski va yangi tafakkur o‘rtasidagi ziddiyat ham frazeologizmlar vositasida beriladi. “Boshyalang yurish” iborasi matnda bir necha marta takrorlanib, alohida timsoliy yuk tashiydi: u nafaqat tashqi ko‘rinishni, balki butun bir avlodning erkinlik va o‘zgarish tuyg‘usini ifodalaydi. Xuddi shunday, “etak silkiymiz” (aloqani uzish), “bir qorindan chiqqan” (qon-qarindoshlik burchi), “yotning mehri qochadi” (begonalar nazarida uyat bo‘lish) kabi iboralar oila ichidagi ziddiyatning ijtimoiy-axloqiy zaminini ochib beradi. A. Mamatov ta’kidlaganidek, frazeologik birliklarning ijtimoiy-baholovchi ma’nosi ko‘pincha ularning kontekstdagi qo‘llanishida yorqinroq namoyon bo‘ladi [5].

Hikoyaning falsafiy-umumlashtiruvchi qatlamida ham frazeologizmlar muhim rol o‘ynaydi. Muallif “Endi bizning har birimizga alohida bir qo‘rg‘on kerak!” [3:107] kabi kengaytirilgan metafora-frazeologizmni qo‘llash orqali zamonaviy insonning yolg‘izlashuvi, avlodlar orasidagi begonalashuvi haqidagi umuminsoniy g‘oyani ifodalaydi. Bunday frazeologik-metaforik kengaytmalar oddiy turg‘un birikmalardan farqli o‘laroq, muallifning individual uslubiga xos, badiiy jihatdan yangilangan frazeologizmlar hisoblanadi. Ularning mavjudligi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy yozuvchi nafaqat tayyor xalq frazeologiyasidan foydalanadi, balki uni ijodiy o‘zgartirib, kengaytirib, o‘z badiiy niyatiga moslashtiradi. Bu esa frazeologizmning statik emas, balki dinamik, rivojlanuvchi til hodisasi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**6. Semantik chatishuv darajasiga ko‘ra tasnif**

Frazeologizmlarning uslubiy vazifasini to‘liqroq yoritish uchun ularni an’anaviy semantik chatishuv darajasiga ko‘ra ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Sh. Rahmatullayev tasnifiga ko‘ra, frazeologik birliklar frazeologik chatishma (idioma), frazeologik butunlik va frazeologik birikma kabi turlarga ajratiladi [6:12]. Hikoya matnida frazeologik chatishmalar ma’nosi tarkibiy qismlar ma’nosidan butunlay ajralib ketgan, motivatsiyasi tarixiy-etimologik jihatdan xiralashgan birliklar nisbatan kamroq, biroq eng ekspressiv guruhni tashkil etadi: “Xudo uribdi” (juda yomon bo‘libdi ma’nosida), “jon-poni chiqdi” (juda qo‘rqib ketdi ma’nosida). Bunday chatishmalarning ma’nosini faqat kontekst orqaligina to‘g‘ri anglash mumkin, bu esa ularning uslubiy “zichligini”, ta’sir kuchini yanada oshiradi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Frazeologik butunliklar ma’nosi obrazli motivatsiyaga ega, ammo tarkibiy qismlarining ma’nosi qisman saqlangan birliklar hikoyada eng ko‘p uchraydigan tur hisoblanadi: “tilini sug‘urib olmoq” (kesatiqli gapirganlik uchun jazolamoq ma’nosida), “etak silkimoq” (aloqani uzmoq), “boshini ochmoq” (an’anaviy kiyinish tartibidan chekinmoq). Bunday birliklarning

obrazliligi o‘quvchi tomonidan nisbatan oson “o‘qiladi”, chunki ularning ichki shakli (motivatsiyasi) shaffof. Frazeologik birikmalar tarkibidagi bir komponent erkin, ikkinchisi bog‘langan ma’noda qo‘llanadigan birliklar esa asosan neytral-tasviriy vaziyatlarda ishlatiladi: “umid uzmoq”, “nazar solmoq”, “alam qilmoq”. Bu uch turning matnda uyg‘un tarzda taqsimlanishi shuni ko‘rsatadiki, muallif frazeologik boylikning barcha semantik qatlamidan eng “muzlagan” idiomalardan tortib erkin birikmalargacha ongli va maqsadli tarzda foydalangan, bu esa uning tilga bo‘lgan yuksak badiiy did va professional mahoratidan dalolat beradi.

Yuqoridagi tasnif frazeologizmlarning ikki mustaqil, biroq bir-birini to‘ldiruvchi tekislikda tahlil qilinishi mumkinligini ko‘rsatadi: birinchisi funksional-uslubiy tekislik (obraz yaratish, milliy kolorit, ekspressivlik, individuallashtirish, ziddiyatni ifodalash), ikkinchisi semantik-struktur tekislik (chatishma, butunlik, birikma). Ushbu ikki tekislikning kesishgan nuqtalarida frazeologizmning badiiy matndagi haqiqiy salmog‘i to‘liq namoyon bo‘ladi: masalan, “jon-poni chiqdi” frazeologik chatishmasi bir vaqtning o‘zida ham ekspressiv-emotsional, ham obraz-xarakter yaratuvchi vazifani bajaradi, bu esa frazeologizmning ko‘p qatlamli, sinkretik uslubiy tabiatidan dalolat beradi.

**1-jadval. “Piyoda” hikoyasidagi frazeologizmlarning funksional-semantik tasnifi**

| № | Funksional guruh | Misollar | Asosiy vazifasi |
|---|---|---|---|
| 1 | Obraz-xarakter yaratuvchi | tilginasini sug‘urib olgisi keldi; o‘tgan asrdan qolgan odam | Xarakterni ixcham va ta’sirchan ochish |
| 2 | Milliy-etnografik | tan-joning sog‘mi; devor ag‘nasa, ichkari ag‘nasin | Milliy turmush ruhini berish |
| 3 | Ekspressiv-emotsional | vujudi zirqirab ketdi; alami jo‘shdi | His-tuyg‘uni kuchaytirish |
| 4 | Nutqni individuallashtiruvchi | izi o‘chsin, nomi o‘chsin | Qahramonga xos nutqiy madaniyat yaratish |
| 5 | Ijtimoiy-psixologik ziddiyatni ifodalovchi | boshyalang yurish; etak silkiymiz | Qahramonlar orasidagi ziddiyatini bildirish |

**Natijalar va muhokama**. O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, Erkin A’zamning “Piyoda” hikoyasida frazeologizmlar matnning barcha struktur qatlamlarida syujet, xarakter, nutq va g‘oya darajasida faol ishtirok etadi. Sifat jihatidan eng faol namoyon bo‘lgan guruh ekspressiv-emotsional frazeologizmlar bo‘lib, bu hikoyaning umumiy hissiy-dramatik ohangi bilan bog‘liq. Ularga yaqin turgan yana bir salmoqli guruh obraz-xarakter yaratuvchi frazeologizmlar, bu esa muallifning psixologik tasvirga alohida e’tibor qaratganligidan dalolat beradi.

Diqqatga sazovor jihat shundaki, frazeologizmlarning taqsimlanishi tasodifiy emas, balki har bir personajning ijtimoiy-ma’naviy holatiga mos ravishda tanlangan. Yozuvchi frazeologik boylikdan foydalanishda tasodifiy emas, balki har bir qahramonning ijtimoiy-psixologik portretiga mos strategiyani qo‘llaydi. Bundan tashqari, “boshyalang yurish” kabi frazeologik birlikning matnda bir necha bor takrorlanishi frazeologizmning nafaqat lokal, balki matn butunligini ta’minlovchi kompozitsion vazifa ham bajarishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar Sh. Rahmatullayevning frazeologik birliklarni o‘zbek original badiiy prozasi namunalaridan to‘plangan material asosida tizimlashtirish tamoyili [9:56] bilan uyg‘un bo‘lib, zamonaviy nasr namunalari ham frazeologik fondni boyitish va yangilashning muhim manbai bo‘lib qolayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida yana bir muhim jihat aniqlandi: hikoyada qo‘llangan frazeologizmlarning katta qismi umumxalq tiliga xos bo‘lsa-da, ularning bir qismi (masalan, “tan-joning sog‘mi”, “oyro‘zingdi vaqti xush” kabi murojaat shakllari) ma’lum bir hududiy shevaga xos fonetik-leksik xususiyatlarni saqlab qolgan. Bu esa muallifning shevaviy unsurlardan ham uslubiy vosita sifatida foydalanganini, ya’ni frazeologizmlarni nafaqat umumadabiy, balki mahalliy nutqiy kolorit yaratish uchun ham qo‘llaganini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv, B. Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek [15], zamonaviy o‘zbek yozuvchilari orasida keng tarqalgan tendensiya bo‘lib, badiiy matnni jonlantirish, uni sun’iy adabiy tildan xalq jonli tiliga yaqinlashtirish maqsadida qo‘llaniladi.

Shuningdek, tahlil frazeologizmlarning matn ichidagi joylashuv o‘rni bilan ularning uslubiy vazifasi o‘rtasida ma’lum bir bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi: dialoglarda qo‘llangan frazeologizmlar asosan ekspressiv-baholovchi, muallif nutqida (tasvir va tavsiflarda) qo‘llangan frazeologizmlar esa ko‘proq obraz-xarakter yaratuvchi va falsafiy-umumlashtiruvchi xarakterga ega. Bu kuzatuv frazeologizmning uslubiy

vazifasi nafaqat uning lug‘aviy-semantik tabiati, balki matndagi nutqiy vaziyat (dialog yoki tasvir) bilan ham belgilanishini ko‘rsatadi. Frazeologizmlarning badiiy tarjima nuqtai nazaridan tug‘diradigan muammolarga ham mavjud. Milliy-etnografik va qarindoshlik munosabatlariga oid frazeologizmlar (“kindikkinangdi kesgan kampir”, “bir qorindan chiqqan”) boshqa tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilinganda o‘z obrazliligini va milliy-madaniy ma’nosini yo‘qotadi, bu esa tarjimondan muqobil frazeologik vositalar izlash yoki tasviriy tarjima usulini qo‘llashni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot natijalari nafaqat tilshunoslik va adabiyotshunoslik, balki tarjimashunoslik sohasi uchun ham amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin, chunki milliy koloritga boy frazeologizmlarning tarjimada berilishi masalasi hamon dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

**Xulosa.** O‘tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Hozirgi zamon o‘zbek hikoyachiligida frazeologizmlar shunchaki tilni bezash vositasi emas, balki matnning g‘oyaviy-badiiy tizimini shakllantiruvchi faol uslubiy quroldir. Frazeologik birliklar personaj xarakterini ixcham va ta’sirchan tarzda ochib berish, milliy turmush tarzi va xalq tafakkurini asarga singdirish, voqealarning emotsional-ekspressiv jarangini kuchaytirish kabi bir nechta uzviy bog‘liq vazifani bajaradi. Har bir qahramonga xos frazeologik “ovoz” yaratish orqali muallif personajlarning ijtimoiy-ma’naviy holatini individuallashtiradi; bunda frazeologizmlarning yo‘qligi (masalan, ota obrazida) ham alohida uslubiy ma’no kasb etishi mumkin. Frazeologizmlar asarning bosh g‘oyaviy ziddiyatini an’ana va zamonaviylik to‘qnashuvini ifodalashning muhim vositasiga aylanadi va matn kompozitsiyasini bir butun tizimga bog‘lashda ishtirok etadi.

Semantik chatishuv darajasiga ko‘ra tasnif shuni ko‘rsatadiki, muallif frazeologik chatishma, butunlik va birikmalarning barchasidan ongli tarzda foydalangan bo‘lib, bu uning tilga bo‘lgan yuksak badiiy did va professional mahoratidan dalolat beradi. Funksional-uslubiy va semantik-struktur tekisliklarning kesishuvi frazeologizmning ko‘p qatlamli, sinkretik tabiatini yaqqol namoyon etadi. Frazeologik birliklarning badiiy matndagi o‘rnini o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu yozuvchining badiiy niyatini, uning qahramonlarga va davrga munosabatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kelajakda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni boshqa o‘zbek yozuvchilari ijodi materialida qiyosiy tarzda davom ettirish, shuningdek so‘nggi yillarda nashr etilgan yangi frazeologik lug‘atlar [13] va frazeografiyaning rivojlanish tarixi [15] bilan bog‘liq manbalardan foydalanish sohaning nazariy-amaliy bazasini yanada boyitadi hamda o‘zbek frazeostilistikasi yo‘nalishining mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.Ta’kidlash joizki, Erkin A’zamning “Piyoda” hikoyasi o‘zbek frazeologik boyligining badiiy matnda naqadar ko‘p qirrali va samarali ishlashi mumkinligini yaqqol namoyish etuvchi qimmatli manba bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, frazeologizm bu tilning “muzlab qolgan” tarixiy qatlami emas, balki har bir yozuvchi tomonidan qayta jonlantiriladigan, individual badiiy niyatga moslashtiriladigan tirik uslubiy resurs. Shu boisdan zamonaviy o‘zbek nasri tilini o‘rganishda frazeostilistik tahlilning nazariy-amaliy ahamiyati kelgusida yanada ortib borishi tabiiydir. Bunday tadqiqotlar, bir tomondan, o‘zbek tilshunosligining nazariy bazasini boyitsa, ikkinchi tomondan, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida badiiy matn tahlili, uslubshunoslik va adabiy tanqid fanlarini o‘qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

### *ADABIYOTLAR:*

*1. Bayjigitov O.I. “O‘zbek muloqot nutqidagi frazeologik birliklar: kognitiv va lingvokulturologik tamoyillari”: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2023. – 51 b.*

*2. Berdiyorov H., Rasulov R. “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – 320 b.*

*3. E.A’zam “Ertak bilan xayrlashuv” qissalar va hikoyalar.-T. “O‘zbekiston milliy esnklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti,2007.200 bet.*

*4. Hojiyev A. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.*

*5. Mamatov A.E. “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari”. – Toshkent, 1991.*

*6. Rahmatullayev Sh. “Frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlari”. – Toshkent, 1955.*

*7. Rahmatullayev Sh. “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari”. – Toshkent: Fan, 1966. – 145 b.*

*8. Rahmatullayev Sh. “Nutqimiz ko‘rki”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970.*

*9. Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati". – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 407 b.*

*10. Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining frazeologik lug'ati". – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.*

*12. Rasulov A. "Badiiy matn tahlili asoslari". – Toshkent, 2020.*

*13. Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. "O'zbek tili frazeologik lug'ati". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.*

*14. Yo'ldoshev B. "Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari": Filol. fan. d-ri diss. avtoref. – Toshkent, 1993. – 47 b.*

*15. Yo'ldoshev B. "O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti". Monografiya – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2007.*